

TOG'AY MUROD ASARLARINING BADIY TIL XUSUSIYATLARI

T.R.Allayorov – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tayanch so'zlar: badiiy-estetik, emotsional-ekspressiv, lingvopoetik xususiyatlar, antonimiya, morfologik antonimiya, leksik antonimiya.

Ключевые слова: художественно-эстетические, эмоционально-экспрессивные, лингвопоэтические особенности, антонимия, морфологическая антонимия, лексическая антонимия.

Key words: artistic-aesthetic, emotional-expressive, linguistic-poetic features, antonymy, morphological antonymy, lexical antonymy.

Ma'lumki, til – millatning ma'naviy boyligi sanaladi. U nafaqat muomala vositasi, balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixini ajdodlardan-avlodlarga yetkazib beruvchi xazinadir. Shunday ekan, tilimizning rivoji xalqimizning ma'naviyati, madaniyati, taraqqiyoti, nufuzi va ilm-fan taraqqiyoti uchun xizmat qilishini anglagan holda e'tiborli bo'lishimizni talab etadi. Eng avvalo, bu sohada tilshunos olimlarimiz muqaddas tilimizga bo'lgan hurmatlarini o'zining chuqur samimiyatlari va nozik his-tuyg'ulari orqali ona tilimiz sir-sinoatlarini xalqimizga ko'rsata bilishlarida yetakchilik qilishlari lozim. Jahon tillari orasida o'zbek tilining ham mavqei tobora yuksalib borayotganligini o'zbek allomalari, olimlari, shoirlar va yozuvchilarining yaratgan asarlari misolida madh etishimiz va tilimizning serqirra imkoniyatlarini hamda hech bir millat tilidan qolishmasligini baralla kuylashimiz, faxr bilan tilga olishimiz lozim.

Til taraqqiyoti va nufuzi bevosita shu xalqning rivoji hamda dunyo hamjamiyatida munosib mavqega ega bo'lishi uchun xizmat qiladi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan ilm-fan va taraqqiyot asrida dunyo tilshunosligi ham o'zining keyingi davr rivojida milliy til va adabiy tilning o'ziga xos hodisalarini teran tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ijtimoiy taraqqiyot, barcha fanlarda bo'lgani kabi, tilshunoslik oldiga ham yangi talablarni qo'ydi. Milliy tillar va ularning individualligi hodisasi global masalalar sirasida markaziy o'rinni egallaydi. Har bir tilning serjilva va serqirra imkoniyatlari va nufuzi bevosita shu tilda so'zlashuvchi xalqning tabiati, ma'naviyati, madaniyati, urf-odatlar, qadriyatlari hamda boy tarixi bilan qiyoslanadi. Keyingi yillarda yaratilgan badiiy asarlarda milliy mentalitetni bor bo'yi bilan ko'rsatib berish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Zero, badiiy adabiyot va uning tili davr ruhi ko'proq aks etgan noyob manbalar bo'lgani kabi, bu holat, o'z-o'zidan lingvopoetik tadqiqotlar yaratilishiga ham ta'sir qiladi. Dunyo tilshunosligida faol qo'llanib kelinayotgan tavsiflash, qiyoslash, funktsional-semantik, lingvopoetik, tarixiy-tipologik va analitik metodlar asosida milliy adabiyotimizga mansub adabiy asarlar matnining sintaktik xususiyatlarini dunyo tilshunosligi kontekstida o'rganish, ularni lingvopoetik nuqtai nazardan tahlil va tadqiq qilish globallashuv davri tilshunosligining o'ziga xos ehtiyojiga aylandi. Bugungi kun ilm-fani global yechimlarni talab qilmoqda ekan, badiiy matnning til xususiyatlarini teran ilmiy sharhlash, asar sintaksisining lingvopoetik imkoniyatlarini ochib berish singari masalalarni har tomonlama keng tadqiq etish dunyo tilshunosligida kun sayin dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbek tilshunosligi tarixiga nazar solar ekanmiz, adabiyotni tilning "bezangan, ziynatlangan bir shakli" [1:132]. deb bilgan buyuk alloma Fitrat "Adabiyot qoidolari" asarida badiiy tilning imkoniyatlari va o'ziga xos jihatlari, uslub tanlashda adib mahorati va u bilan bog'liq muammolar, badiiy san'atlar hosil qilishda til vositalarining beqiyos o'rni, badiiy asar tilida qo'llanilgan maqbul va nomaqbul jihatlarga alohida to'xtalib, badiiy matnning til xususiyatlariga doir masalalarni badiiy asar tilidan olingan teran misollar asosida mohirona tahlil qilgan.

Badiiy asarlarning tilini o'rganuvchi badiiy matn tahlilida adib tomonidan qo'llangan so'zlarning shakli va ma'naviy munosabatlari juda muhim o'rin tutadi. Yozuvchi maqsadini to'g'ri va estetik jihatdan jozibador tarzda ochib

berish uchun so'zlarning umumiste'moldagisini emas, balki nozik ma'noli, jozibador, emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlikka ega bo'lgan shaklini mohirona qo'llash orqali o'z iste'dodini namoyish etadi hamda badiiy tilning bor imkoniyatlarini ochib berishga harakat qiladi.

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanini o'qib, kuzatar ekanmiz, yozuvchi asarda takrorlarga juda ko'p murojaat qilish orqali go'zal badiiy san'at yaratgan. Asarda boshdan oxirigacha qo'llanilgan takrorlar orqali adib o'ziga xos uslub yaratgan. Bu uslub asar tilining originalligini ta'minlagan va kitobxonda asarga nisbatan alohida qiziqish uyg'ota olgan. Yozuvchi asarda, voqealar tasvirini berishda takrorlardan unumli foydalanganini ko'ramiz.

Bobomiz urmish ketmonni o'zidan o'zga yerdan tortib ololmaydi. Bobomiz kalima qaytarib-qaytarib ketmon chopadi. Xudoni yodlab-yodlab ketmon chopadi. Xudoga shukrona aytib-aytib ketmon chopadi. (Tog'ay Murod "Otamdan qolgan dalalar" 2-bet)

Matndan ko'rinib turibdiki, yozuvchi deyarli har bir gapda takror so'zlardan foydalangan. Takrorlarni mohirlik bilan qo'llash orqali asarga ta'sirchanlik, emotsional-ekspressivlik bera olgan (takrorlar haqida keyingi maqolalarda alohida to'xtalamiz).

Shu bilan birga roman matnida badiiy ifoda, fikr, emotsionallikni yetkazishda antonimlardan unumli foydalangan.

Antonimiya. Badiiy asarning jozibadorligini va o'qimishligini ta'minlashda antonimiya hodisasi o'ziga xos lingvopoetik vazifa bajaradi. Sharq allomalari tomonidan yaratilgan adabiyotlarda juda qadim zamonlardan buyon tilning bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan [2:43].

Bizga ma'lumki, bir-biriga qarama-qarshi ma'noli so'zlar antonimlar sanaladi. Antonim so'zlarning xususiyati shundaki, ularning biri ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yilib, birining mazmuni ikkinchisini inkor etadi, birinchisining ma'nosi ikkinchisiga qarshi qo'yiladi. Tilimizda barcha so'zlarning ham antonimi mavjud emas. Nutqda antonimlar turli xil yo'llar bilan hosil bo'ladi. Antonimlar nutqda predmet, hodisa va ularning belgilarini solishtirib ko'rishda, bir-biriga qarama-qarshi qo'yishda va fikrimizni, his-tuyg'ularimizni ta'sirli, aniq-ravshan ifodalashga juda katta yordam beradi. Antonimlar o'zaro qarama-qarshi til birliklari hisoblanadi. Antonimlarning asosida ma'nolar ziddligi qonuniyati yotadi.

1. Morfologik antonimiya. Yozuvchi o'zbek tilining keng, sarhadsiz imkoniyatlarini bevosita tavsiflashda lisoniy butunliklar sirasida qo'shimchalar o'rtasidagi o'zaro qarama-qarshi ma'nolilik xususiyatidan asar matnida o'rinli foydalangan.

Masalan: *Tukli chigit bo'ladi, tuksiz chigit bo'ladi. Tuksiz chigit bo'lali-bo'lali bo'ladi. Tuksiz chigit zalvorli-zalvorli bo'ladi. Tuksiz chigit bexato oladi, tuksiz chigit bexato ko'radi. Dalalarim uchun ana shu tuksiz urug' chigit keldi.* (Tog'ay Murod "Otamdan qolgan dalalar" 49-bet)

Ushbu misolda o'zaro ziddlik asosida *-li* va *-siz* antonim qo'shimchalari orqali chigitning turlari, ularning sifatleri va xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Yozuvchi shu o'rinda *tukli* va *tuksiz* so'zlari o'rnida tuki bor va tuki yo'q so'zlarini ham qo'llashi mumkin edi. Lekin yozuvchi bu o'rinda o'zbek tilida qo'shimchalar orqali ham antonimlar

hosil qilishning samarali va tejankor usullari mavjud ekanligini ilmiy-amaliy jihatdan ko'rsatib o'tadi. Chigitlarning farqi qarama-qarshi qo'shimchalar orqali yaqqol ifodalangan. Albatta, bu jumladagi antonim qo'shimchalar o'z o'rnida qo'llanib, jumlaning ta'sir kuchining oshirishga xizmat qilgan desak, xato bo'lmaydi. Ushbu zid ma'noli qo'shimchalar bog'lanib kelgan so'zlarni qo'llash natijasida yozuvchi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki tushunchani zidlash orqali tasvirning aniq, ravshan chiqishiga va ifoda ekspressivligiga erishgan.

2. Leksik antonimiya. Ma'lumki, antonimlarni hosil qilishda sifat so'z turkumi doirasidagi zid ma'nolilik mahsuldor hisoblanadi.

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida leksik sathdagi zid ma'nolilik ko'proq ravish, fe'l, ot va sifat so'z turkumi doiralarida yuzaga keladi.

a) sifat so'z turkumi doirasida: *Ay, bir qizlar bo'ldi, ay, bir qizlar bo'ldi! Paxtaday oppoq qizlar bo'ldi. Qoshkiprigi qop-qora qizlar bo'ldi. Lablari paxta guliday qip-qizil qizlar bo'ldi. Aybi... yalang'och qizlar bo'ldi!*

Aslida antonimlar tilimizda ko'proq zid ma'noli juft so'zlar shaklida uchraydi. Yozuvchi Tog'ay Murod o'z asarlarida juft va alohida shakllarda qo'llab, butun gaplarda ifodalangan mazmunni bir-biriga zidlash orqali narsa, predmet, voqea-hodisalarning xususiyatlarini ochib berishga harakat qiladi. Ushbu misolda yozuvchi Moskva go'zallar musobaqasida ishtirok etayotgan qizlarning go'zalligi va chiroyini ta'riflashda ularning rangini paxtaday **oppoq** va qosh-kiprigini **qop-qora** deya ta'kidlagan. Shunigdek, yozuvchi bu qizlarning go'zallikda tengi yo'qligini, go'zallar musobaqasida eng chiroyli va sarvqomat qizlarning husnlarini ta'riflashda bir-biriga zid ma'no ifodalovchi **oq-qora** sifatlarining **oppoq-qop-qora** antonim so'zlarni keltirgan. Bu so'zlar juft holda keltirilganda ham alohida olinganda ham antonimlik hodisasini yuzaga keltiradi. Yozuvchi o'zbek tilidagi antonim sifatlarining oddiy, qiyosiy va ortirma darajalaridan qahramonlar nutqda sermahsul foydalana olgan. Ijodkorning bu bu yo'li tasvirlanayotgan voqelikni va personajlar xarakterini yaratishda va ochib berishga munosib xizmat qilgan.

Qator tilshunoslar so'zlarning o'zaro antonimlik hosil qilishdagi shartlardan biri ularning juft so'zdan tarkib topishi lozimligini ta'kidlashadi [4:60].

Tilshunos olimlar A.Hojiyev, A.Ahmedov "O'zbek tili leksikologiyasi"da "...antonimiya so'zlarning o'zaro zid (qarama-qarshi) munosabatdagi ma'noga egaligidir. Ana shunday munosabatdagi ma'noga ega so'zlar antonimlar deyiladi" [3:156-167]. deya ta'rif beradi.

Yozuvchi Tog'ay Murod asar voqealarini tasvirlashda hamda qahramonlar xarakterini ochib berishda, ularning ruhiyatini tasvirlashda ravish so'z turkumi doirasidagi antonimlardan o'z ornida munosib foydalanadi.

b) ravish so'z turkumi doirasida: Bechora dalada-da bir ko'ylakda yuradi, uyda-da bir ko'ylakda yuradi. Bechora kunda-da bir ko'ylak kiyadi, tunda-da bir ko'ylak kiyadi. Ravish so'z turkumiga mansub dalada va uyda, kunda va tunda so'zlari "o'rin-joy" va "payt" ma'nosini ifodalovchi qarama-qarshi ma'noli so'zlardir. Kun va tun so'zlarining ma'nosi bir sutkaning yorug' va qorong'i qismini ifodalovchi nomlardir. Bechora, ogir qismatli o'zbek ayollarining kun-u tun daladagi ayanchli mehnatdan ortmasligi va qo'li kasov, sochi supurgi bo'lib kun kechirishi, kunduzi bir ko'ylakda, tunda bir ko'ylakdan egni boshqa narsani ko'rmagan ayollarni iztirobli tarzda "Bechora kunda-da bir ko'ylak kiyadi, tunda-da bir ko'ylak kiyadi" deya antonim so'zlarni ta'kid yuklamalari bilan birga qo'llagan. Bu bilan o'sha vaqtdagi o'zbek xotin-qizlarining kun-u tun qanday og'ir kunlarni boshidan kechirganliklarini antonim so'zlardan foydlangan holda obrazli ifodalab bergan. Ammo kontekstda o'zbek xotin-qizlarining g'am-tashvish bilan yurishi ta'kidlangan.

d) fe'l so'z turkumi doirasida: Turk go'zali **bosayinmi-bosmayinmi**, deya odimladi. (Tog'ay Murod. 85-bet) «Men yalong'och ayollarga **qarayotganim yo'q**. Mana, husayni uzumlarga **qarab o'tiribman**». (Tog'ay Murod. 86-bet)

Ko'nglim **tortib-tortmay** kavshandim. (Tog'ay Murod. 87-bet)

Men butifos hidini **bilib-bilmaslikka** oldim. Men butifos hidini **ko'rib-ko'rmaslikka** oldim. (Tog'ay Murod. 88-bet)

Yuqoridagi kabi misollarni asarda yuzlab o'rinlarda uchtamiz. Ushbu misollarda fe'l so'z turkumi va fe'lning turli vazifadosh shakllariga mansub **bosayinmi-bosmayinmi**, **qarayotganim yo'q** va **qarab o'tiribman**, **tortib-tortmay**, **bilib-bilmaslik**, **ko'rib-ko'rmaslik** leksemalari o'rtasida ma'nolar zidligi hosil qilingan. Mazkur so'zlar matnda ham, matndan tashqarida ham zid ma'no ifodalab, antonim juftlik yaratilgan. Bu o'rinda yozuvchi butun umr dalada ketmon chopib, serquyosh yurtida yelkasi oftob ko'rmagan, qut-barakotli yurtida kosasi oqarmagan munis o'zbek xalqining siymosini asar qahramoni Dehqonqulning o'z boshidan kechirgan ogir qismatini ochib berish uchun fe'l turkumiga xos bo'lgan leksik juftlikdan foydalangan. Mazkur asarni tahlilga tortar ekanmiz, adibning ona tilimiz sarchashmalari va bitmas-tuganmas bulog'idan yuksak darajada xabardor ekanligining guvohi bo'lamiiz. Tog'ay Murodning ijodiga nazar tashlar ekanmiz, yozuvchining nafaqat Surxondaryo xalqining so'zlashuv tili, rang-barang shevalari, nozik iborolari, ularning his-tuyg'ularini ifodalovchi so'z o'yinlari va jumllarini mukammal o'zlashtirgan, balki o'zi yashagan zamindagi xalq, otabobolari va ajdodlarining madaniy-ma'naviy meroslari, qadriyatlaridan ham yaxshigina xabardor ekanligini sezamiz.

Adabiyotlar

1. Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилд. 132- б.
2. Ёўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент: 2000. 43-б.
3. Ҳожиёв А., Аҳмедов А. Ўзбек тили лексикологияси. -Тошкент: "Фан", 1981. 251-б.
4. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И., Ўзбек тили. 32-б.
5. Тоғай Мурод "Отамдан қолган далалар" Шарқ нашриёти матбаа концернининг бош тахририяти. –Тошкент: 1994.

REZYUME. Maqolada Tog'ay Murod asarlarida qo'llanilgan til birliklarining badiiy-estetik, emotsional-ekspressiv, lingvopoetik xususiyatlari va shu birliklarni tanlashda yozuvchi mahorati haqida fikr yuritiladi hamda munosabat bildiriladi.

РЕЗЮМЕ. В статье размышляют о художественно-эстетических, эмоционально-экспрессивных, лингвопоэтических особенностях языковых единиц, используемых в произведениях Тоғая Мурада, и мастерстве писателя в выборе этих единиц.

SUMMARY. The article reflects on the artistic-aesthetic, emotional-expressive, linguapoetic features of the linguistic units used in the works of Toғay Murad, and the writer's skill in choosing these units.